

**KICHIK IQTISODIY SEKTORLARNING YALPI ICHKI MAHSULOTDAGI O'RNI HAMDA
ULARNING RIVOJLANISH TENDENSIYALARI**

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10522522>

Muzaffarxonov Saida'loxon Akmalxon o'g'li

Farg'ona davlat universiteti Iqtisodiyot fakultetining 2-kurs talabasi

Annotatsiya: *Maskur maqola dunyoning eng rivojlangan mamlakatlarida ham yalpi ichki mahsulotining katta qismini tashkil etayotgan, iqtisodiy sikllarga tez moslashuvchan, mamlakatning eksport hajmiga o'zining yuqori hissasini qo'shayotgan, ishsizlikga qarshi kurarishda asosiy ro'l o'ynayotgan kichik biznes hamda xususiy tadbirkorlikning yalpi ichki mahsulotga qo'shayotgan hisyasi hamda rivojlanib borish tendensiyalari yoritib o'tilgan.*

Kalit so'zlar: *Yalpi ichki mahsulot, iqtisodiyot, biznes, tadbirkorlik, talab, eksport, taraqqiyot strategiya.*

**МЕСТО МАЛЫХ ОТРАСЛЕЙ ЭКОНОМИКИ В ВАЛОВОМ ВНУТРЕННЕМ ПРОДУКТЕ
И ТЕНДЕНЦИИ ИХ РАЗВИТИЯ**

Музаффарханов Саидаълохан сын Акмалхана

Студент 2 курса экономического факультета

Ферганского государственного университета

Аннотация: *В данной статье речь идет о вкладе малого бизнеса и частного предпринимательства в валовой внутренний продукт, которые составляют значительную часть валового внутреннего продукта наиболее развитых стран мира, быстро адаптируются к экономическим циклам, вносят высокий вклад. объему экспорта страны и играют ключевую роль в борьбе с безработицей, выделен ее вклад и тенденции развития.*

Ключевые слова. *Валовой внутренний продукт, экономика, бизнес, предпринимательство, спрос, экспорт, стратегия развития.*

**THE PLACE OF SMALL ECONOMIC SECTORS IN THE GROSS DOMESTIC PRODUCT AND
THEIR DEVELOPMENT TENDENCIES**

Muzaffarkhanov Saidalakhon is the son of Akmalkhan

2nd year student of the Faculty of Economics of Fergana State University

Abstract: *This article is about the contribution of small businesses and private entrepreneurship to the gross domestic product, which make up a significant part of the*

gross domestic product of the most developed countries in the world, quickly adapt to economic cycles, and make a high contribution. the country's export volume and play a key role in the fight against unemployment, its contribution and development trends are highlighted.

Keywords: *Gross domestic product, economy, business, entrepreneurship, demand, export, development strategy.*

KIRISH

O'zbekiston Respublikasini soniyalar sayin rivojlanib borishi, jahon bozorida o'z o'ringa ega bo'lishi hamda iqtisodiyotda qardosh respublikalar o'rtasida yetakchilikni qo'lga kiritayotganiga mamlakatimiz prezidenti Sh.Mirziyoyevning odil iqtisodiy qarashlari va eng asosiysi umuminsoniy qadriyatlarga tayangan holda iqtisodiy-sisosiy faoliyat olib borayotgani mamlakatimizni yanada rivojlanib borishiga dastak bo'lmoqda. Statistika ma'lumotlar hamda prognozlash natijalariga ko'ra 2023-2024 yillarda O'zbekiston iqtisodiyoti 5,6-5,8 foiz doirasida, 2025-2026 yillarda mos ravishda 6,2 va 6,4 foizgacha o'sishi kutilmoqda. Bunda, 2030 yilga borib aholi jon boshiga to'g'ri keladigan yalpi ichki mahsulotni 4 ming AQSH dollariga yetkazish bo'yicha belgilangan maqsadidan kelib chiqib prognoz qilingan. Ushbu yuqori ko'rsatkichlarga erishish uchun tadbirkorlik subyektlariga alohida e'tibor talab etiladi. Xususiylashtirish – bu xususiylashtirish mulkchilikka asoslangan tadbirkorlikdir. Bu yerda tadbirkorlikga jalb etiladigan moddiy, moliyaviy resurslar, yaratilgan tovar va xizmatlar, ularni sotishdan kelgan daromad, birinchidan, individual (yakka tarizda), ikkinchidan korporativ (guruh tarkibidagi) xususiylashtirish mulk hisoblanadi. Bozor iqtisodiyotida yetakchi xususiylashtirish tadbirkorlik hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasining "Budget loyihasi"da ham korxonalarni xususiylashtirish va transformatsiya qilishni jadallashtirish hamda xususiylashtirish sherikligi asosidagi loyihalardan foydalanishni kengaytirish choralarini jadallashtirishga alohida urg'u berib o'tilgan. Shu sababli O'zbekistonda xususiylashtirish mulkning ustuvorligini ta'minlash strategik vazifa hisoblanadi. 2017-yildan beri xususiylashtirish, iqtisodiyotni modernizatsiya qilish degan atamaga alohida urg'u berib kelinmoqda. O'zbekiston Respublikasining Prezidenti Sh. Mirziyoyev farmoniga asosan 2022-2026 yillarga mo'ljlanangan "Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiya"si ishlab chiqildi. Ushbu strategiya rivojlanib borayotgan mamlakatimizning kelgusi 5 yil uchun O'zbekiston istiqbolini ko'zlovchi odil rejalar va maqsadlar jam bo'lgan hujjat desak mubolag'a bo'lmaydi. Ushbu strategiya 7 ta maqsad 100 ta vazifani o'z ichiga qamrab oladi. Ushbu taraqqiyot strategiyasining 3-yo'nalishi "Milliy iqtisodiyotni jadal rivojlantirish va yuqori o'sish sur'atlarini ta'minlash" ni o'z ichiga qamrab oladi. Ushbu yo'nalish iqtisodiyotda davlat ishtirokini qisqartirish va xususiylashtirish sektor uchun keng yo'l ochish maqsadida eksklyuziv huquqlarni bekor qilish, davlat ishtirokidagi kompaniyalarni xususiylashtirish hisobiga 25 dan ortiq faoliyat turi bo'yicha monopoliyalarni tugatish, mahallalarda tadbirkorlikni rivojlantirish, aholi bandligini ta'minlash, kambag'allikni qisqartirish masalalari bo'yicha tuman (shahar) hokimi yordamchilari hamda yoshlar

yetakchilari tomonidan doimiy ravishda mahallani o'rganish va tahlil qilish natijasiga ko'ra ularni rivojlantirish bo'yicha "yo'l xaritalari"ni ishlab chiqish amaliyotini yo'lga qo'yish kabi asosiy maqsadi tadbirkorlikni rivojlantirishga qaratilgan odil bir nechta maqsadlarni o'z ichiga qamrab oladi. 2022-yildan boshlab kichik biznes hamda hususiy tadbirkorlikga imkoniyatlar ko'plab yaratilayotganini ko'rishimiz mumkin. O'zbekiston Respublikasining Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan 2022-yil 19-aprelda "Hududlarda tadbirkorlik loyigalarini moliyalashtirish mexanizmlarini yanada kengayish chora-tadbirlari tugrisida"gi karori qabul kilindi. Unga muvofik, tijorat banklariga tiklanish va taraqqiyot jamg'armasining mablag'lari 300 million AKSh dollar va ekvivalent kredit liniyalari ajratiladi. Huquqiy hujjat bilan tijorat banklari tomonidan ishlab chiqarilgan kreditlar ishlab chiqarish va hizmat ko'rsatish sohasidagi loyihalarni amalga oshirish uchun yillik 14 foiz stavkada, 5 yilgacha muddatga, shu jumladan, 2 yilgacha bulgan imtiyozli davr bilan 5 milliard so'mgacha mablag' ajratiladi. Bunda kreditlar tadbirkorlik subyektlarining faoliyat davri 6 oygacha bo'lganida - 1 milliard so'mgacha, 6 oydan 1yilgacha bo'lganda 2 milliard so'mgacha, 1 yildan 2 yilgacha bo'lganda 3 milliard so'mgacha, 2 yildan 3 yilgacha bo'lganda 4 milliard so'mgacha va 3 yildan oshganda 5 milliard so'mgacha ajratiladi. Ushbu imtiyozlarning barchasi xususiy biznes hamda tadbirkorlikni jadal rivojlantirishga qaratilgan. Natijada, so'nggi 10 yilda yalpi ichki mahsulot tarkibida kichik biznes ulushi 31,1 foizdan 52,5 foizga o'sdi, ushbu sohada bandlik darajasi iqtisodiyot tarmoqlarida ish bilan band aholi umumiy sonining 49,7 foizidan 74,5 foizigacha oshdi. Aholi daromadlarining 47 foizdan ziyodi tadbirkorlik faoliyatidan tushgan daromadlar hissasiga to'g'ri keladi.

Mamlakatimizda 2022- yilda kichik biznes subyektlari ulushi iqtisodiyotning asosiy tarmoqlari bo'yicha qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 95,9 %, qurilishda 73,6 %, xizmatlar sohasida 41,1 % va sanoatda 21,5 % ni tashkil etdi. Shu bilan birga, 2022-yil yakunlari bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes) subyektlari tomonidan 429 292,7 mlrd. so'm miqdorida qo'shilgan qiymat yoki iqtisodiyotdagi yalpi qo'shilgan qiymatning 51,8 % i yaratilgan. Shundan 46,6 % i qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi, 11,0 % i sanoat, 9,5 % i qurilish tarmoqlari va 32,9 % i xizmatlar sohasiga to'g'ri keldi. Ushbu ko'rsatkichlarning barchasi bevosita milliy iqtisodiyotimizning tobora gullab-yashnayotganining isboti desak mubolag'a bo'lmaydi. Milliy iqtisodiyotni yanada rivojlantirish tamoyili asosida 4-oktabr kuni Qozon shahrida o'tgan uchinchi hududlararo hamkorlik forumi yakunida 3,5 milliard dollarlik bitim va shartnomalar imzolandi. Toshkent viloyatida 2023-yil yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi 16 138,1 mlrd. so'mni tashkil etgan. Bu ko'rsatkich 2022-yilning yanvar-sentabriga nisbatan 19,3 % ga oshgan. Kichik subyektlarining sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi, tegishli davrda: 2021-yilning yanvar-sentabrida 9505,3 mlrd. so'm 2022-yilning yanvar-sentabrida 11 799,3 mlrd. so'mni tashkil etgan. Bu ko'rsatkichlar faqatgina oddiy ko'rsatkichlarda emas balki amalda ham o'z isbotini topib kelmoqda. Mamlakatimiz prezidenti SHavkat Mirziyoyev to'liq bandlikni ta'minlash, milliy

iqtisodiyotni yanada takomillashtirish hamda kichik biznes va hususiy tadbirkorlikni rivojlantirishni umum iqtisodiy masala sifatida keng muhokamaga tashladi. O'zbekiston respublikasining Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2022-yil 28- yanvardagi "2022-2026 yillarga mo'ljlanlangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" gi PF-60-sonli farmonga muvofiq, tashqi savdoni tartibga solish mexanizimlarini takomillashtirish, mahalliy tadbirkorlik subyektlarining eksport faoliyatini har tomonlama qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish choralarini yanada kuchaytirish orqali yuqori qo'shilgan qiymatga ega mahsulotlar eksportini kengaytirishga doir bir qancha islohatlar amalga oshirilishi belgilab qo'yildi. Lekin hali tadbirkorlikning barcha qirralari va funksional xossalari yetarli darajada o'rganilmagan va natijada uning imkoniyatlari to'liq safarbar etilmaganligi ham ayondir. Demak, Iqtisodiy bilimlar va tadbirkorlik asoslari fani oldida ulkan vazifalar turibdi. Rivojlangan mamlakatlarda ishlab chiqariladigan yalpi ichki mahsulotning qariyb yarmi, ayrim mamlakatlarda esa undan ham ko'prog'i kichik biznes ulushiga to'g'ri keladi. O'zbekistonda yaratilayotgan yalpi ichki mahsulotda kichik va o'rta tadbirkorlik subyektlarining hissasi hozirgi kunda 52 foizdan oshdi va u yildan-yilga o'sib bormoqda.

Rivojlangan mamlakatlarning iqtisodiy faoliyatlariga nazar soladigan bo'lsak deyarli barchasida tadbirkorlikni yanada rivojlantirishga alohida urg'u berib o'tilayabdi. Tadbirkorlikni rivojlantirish orqali mahsulot turini, sifatini va ichki bozor maksimal talabga javob berishiga erishishimiz mumkin. Xususiyy tadbirkorlar ko'payib borishi sog'lom raqobatni rag'batlantiradi. Bu esa endilikda jahon bozorida o'z o'rnini mustahkamlayotgan O'zbekistoni oz fursatlar ichida ulkan cho'qqilarni zabt etishiga hamda ishislik darajasini maksimal qisqartirishiga imkoniyat eshiklarini keng ochib beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI:

1. Asrakulov A. Conceptual approaches to the study of employment models //International Bulletin of Engineering and Technology. – 2023. – T. 3. – №. 5. – C. 56-61.
2. Asrakulov, Abdurakhmon. "Conceptual approaches to the study of employment models." International Bulletin of Engineering and Technology 3.5 (2023): 56-61.
3. Asrakulov, A. (2023). Conceptual approaches to the study of employment models. International Bulletin of Engineering and Technology, 3(5), 56-61.
4. Sultonovich A. A. Multi-Factor Modeling And Forecasting Of Employment Indicators In The National Labor Market Of Uzbekistan //The American Journal of Management and Economics Innovations. – 2020. – T. 2. – №. 12. – C. 27-47.
5. Sultonovich, Asrakulov Abdurakhmon. "Multi-Factor Modeling And Forecasting Of Employment Indicators In The National Labor Market Of Uzbekistan." The American Journal of Management and Economics Innovations 2.12 (2020): 27-47.
6. Sultonovich, A. A. (2020). Multi-Factor Modeling And Forecasting Of Employment Indicators In The National Labor Market Of Uzbekistan. The American Journal of Management and Economics Innovations, 2(12), 27-47.

7. Husanbek, Qurbonov, and K. N. Raximova. "Oilaviy Kichik Biznes Va Xususiy Tadbirkorlikni Rivojlantirishning Ahamiyati Va Zaruriyati." *Gospodarka i Innowacje*. 24 (2022): 1103-1108.

8. Husanbek, Q., & Raximova, K. N. (2022). Oilaviy Kichik Biznes Va Xususiy Tadbirkorlikni Rivojlantirishning Ahamiyati Va Zaruriyati. *Gospodarka i Innowacje*, 24, 1103-1108.

9. Asrakulov A. S. IMPROVEMENT OF THE EMPLOYMENT INDICATORS IN THE ECONOMIC AND STATISTICAL ANALYZING // *Gospodarka i Innowacje*. – 2022. – T. 30. – C. 96-103.

10. Saida'loxon M., Dovlatboyevich M. D. Sun'uy Intelekt Yordamida Pochta Xizmatini Tashkil Qilish // *Miasto Przyszłości*. – 2023. – T. 31. – C. 188-193.

11. Saida'loxon, Muzaffarxonov, and Mirzaakbarov Dilshodbek Dovlatboyevich. "Sun'uy Intelekt Yordamida Pochta Xizmatini Tashkil Qilish." *Miasto Przyszłości* 31 (2023): 188-193.

12. Saida'loxon, M., & Dovlatboyevich, M. D. (2023). Sun'uy Intelekt Yordamida Pochta Xizmatini Tashkil Qilish. *Miasto Przyszłości*, 31, 188-193.